

## **“O`ztemiryo`lnazorat” inspeksiyasi bayonoti!**

Avtomashina haydovchilari aybi bilan temir yo`l kesishmalarida yuz berayotgan harakatdagi tarkibning avtotransport vositasi bilan to‘qnashuvlari poezdlar va avtotransport vositalari harakati xavfsizligiga haqiqiy xavf tug‘dirmoqda. Ayrim haydovchilarning shoshma-shosharligi, qoidalarga rioya qilmasligi natijasida temir yo`l kesishmalaridagi to‘qnashuvlar ortib bormoqada.

2022 - yilning 3 oyi davomida temir yo`l kesishmalarida harakatdagi tarkibning avtomashina bilan to‘qnashuvlari bo‘yicha 20 ta holatga yo`l qo‘yilgan. 2021 - yilning dastlabki choragi bilan solishtirganda 11 ta holatga ko`paygan. Buning natijasida 2 nafar fuqaro halok bo`lgan bo`lsa yana 3 nafari tan jarohati olgan.

Keshishmalarda qoidalarga rioya qilib, belgilangan joylardan o`tishimiz eng avvalo o`z hayotimiz va sog`lig`imizni asrash uchun muhim. Hurmatli haydovchilar, temir yo`l kesishmalarida qoidalarga amal qilib, o`zingiz va o`zgalar hayotini turli ofatlardan saqlashingiz o`z qo`lingizda.

**“O`ztemiryo`lnazorat” inspeksiyasi**  
**Axborot xizmati**